

6/2025,
noyabr-
dekabr
(№ 00080)



YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH BO‘YICHA IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Pirnafasov Sarvar Bardibayevich

“Ma‘mun Universiteti” Iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi

Email: pirnafasov_sarvar@mamunedu.uz

Orcid: [0009-0002-3819-6486](https://orcid.org/0009-0002-3819-6486)

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss6/756

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning ahamiyati, davlat siyosatida bu mexanizmni samarali ishlash prinsplari yoritilgan. Xufyona iqtisodiyotni qisqartirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda iqtisodiy hamda institutsional mexanizmlarni modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: xufyona iqtisodiyot, iqtisodiy va institutsional mexanizm, kredit-moliya tizimi, korrupsiya, budget tushumi.

УЛУЧШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ РАЗРУШЕНИЯ СКРЫТОЙ ЭКОНОМИКИ

Пирнафасов Сарвар Бардибаевич

Преподаватель, кафедра экономики, Университет «Мамун»

Аннотация

В данной статье рассматривается значение экономических и институциональных механизмов в сокращении теневой экономики, а также принципы эффективного использования этого механизма в государственной политике. Сокращение теневой экономики является одним из приоритетных направлений экономической политики, и модернизация экономических и институциональных механизмов имеет в этом процессе важное значение.

Ключевые слова: теневая экономика, экономический и институциональный механизм, кредитно-финансовая система, коррупция, доходы бюджета.

IMPROVEMENT OF ECONOMIC AND INSTITUTIONAL MECHANISMS TO REDUCE THE SHADOW ECONOMY

Pirnafasov Sarvar Bardibayevich

Lecturer, Department of Economics, “Ma‘mun University”

Abstract

This article discusses the importance of economic and institutional mechanisms in reducing the shadow economy, and the principles of effective operation of this mechanism in state policy. Reducing the shadow economy is one of the priority areas of economic policy, and modernization of economic and institutional mechanisms is of great importance in this process.

Key words: underground economy, economic and institutional mechanism, credit and financial system, corruption, budget revenue.

Kirish

Soliq organlari tomonidan nazorat qilinmaydigan, normativ-huquqiy me'yorlarga to'la bo'ysunmaydigan, rasmiy statistikada aks etmaydigan iqtisodiy faoliyat majmui, bu yashirin iqtisodiyot bo'lib, u davlatni iqtisodiy o'sishiga ta'sirini o'tkazadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimida liberallashtirish, biznes jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi jarayonlari yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda¹.

Institutsional omillar deganda boshqaruv sifati, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazaning samaradorligi, siyosiy barqarorlik va shaffoflik darajasi tushuniladi. Bu omillar innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish uchun juda muhimdir. O'zbekiston so'nggi yillarda institutsional muhitni yaxshilashda muvaffaqiyatga erishdi, bu uning Global innovatsiyalar indeksi (GII) reytingida aks ettirilgan. Masalan, O'zbekistonning GII "Muassasalar" kichik indeksidagi reytingi 2019-yildagi 97-o'rindan 2020-yilda 82- o'ringa ko'tarildi², bu esa boshqaruv sifati va normativ-huquqiy muhitni yaxshilash borasidagi yutuqlardan dalolat beradi. O'zbekistonda innovatsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun muhim bo'lgan siyosiy barqarorlikni yaxshilash va korrupsiyani kamaytirish borasida ham muvaffaqiyatga erishildi. Institutsional mexanizmlar natijalari:

- Raqamlashtirish (e-government, e-tax, e-employment), bunda jarayonlarning shaffofligi oshadi, korrupsiya va norasmiy bitimlar kamayadi.
- Huquqni muhofaza qiluvchi institutlar mustahkamligi, bunda qonun buzilishlariga nisbatan qat'iy javobgarlik rasmiy iqtisodiyot ulushini oshiradi.
- Jamoatchilik nazorati va ochiq ma'lumotlar tizimi bunda fuqarolarning iqtisodiy jarayonlarda nazorati kuchayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish uchun turli tadqiqotchilar o'z izlanishlarida bu faoliyat turini kamaytirish uchun turlicha nazariya va konsepsiyalarni ishlab chiqqanlar.

Frey va Pommerehne (1984) xufiyona iqtisodiyotning shakllanishi soliq yuki bilan bog'liq bo'lsa-da, faqat fiskal omillar bu jarayonni tushuntira olmasligini ta'kidlaydilar³. Shu bilan birga, institutsional ishonch pastligi, korrupsiya, huquqiy tartib-taomillarning murakkabligi va iqtisodiy rag'batlarning yetarli emasligi ham muhim omillar qatoriga kiradi. Ularning qarashicha, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi va siyosiy tizimdagi shaffoflik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Agar davlat boshqaruvi korrupsiyaga moyil bo'lsa yoki soliqlarning taqsimlanishida adolat sezilmasa, iqtisodiy subyektlar faoliyatini yashirishga intiladi.

Schneider (2015) tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, jahon iqtisodiyotida yashirin sektor o'rtacha 22–25 foizni tashkil etadi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich sezilarli darajada yuqoridir⁴. O'zbekiston iqtisodiyotida ham tarixan norasmiy bandlik ulushi yuqori

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi; "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi; Jahon banki (2022). Informal Economy Diagnostics: Uzbekistan.

² Cornell University, INSEAD, and WIPO. (2020). Global Innovation Index 2020: Who Will Finance Innovation? Retrieved from https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2020.pdf

³ Frey, B. S., & Pommerehne, W. W. (1984). The Hidden Economy: An International Analysis. Basil Blackwell.

⁴ Schneider, F. (2015). Shadow Economy and Tax Evasion. Cambridge University Press.

bo‘lib kelgan, biroq so‘nggi yillarda soliq tizimi, raqamli boshqaruv va biznes jarayonlarini soddalashtirish bo‘yicha islohotlar ushbu ulushni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvda esa xufyona iqtisodiyot fuqarolarning davlatga nisbatan shakllangan munosabati, odatlari va madaniy xususiyatlari bilan bog‘lanadi. Kaufmann va Kaliberda (1996)⁵ tadqiqotlarida ayrim jamiyatlarda soliqlardan qochish odatiy xatti-harakat sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi. Bu sharoitda iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorga qaytarish nafaqat fiskal choralar, balki madaniy va ta‘limiy islohotlarni ham talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot natijalariga erishishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: nazariy metodologik asos, qiyosiy tahlil (O‘zbekiston va boshqa davlatlar tajribasi solishtiriladi), trend tahlil (2018–2023-yillar kesimida dinamik ma‘lumotlar asosida o‘zgarishlarni hisoblash), empirik tahlil. Institutsional islohotlar bo‘yicha xulosalar shakllantirish, mahalliy iqtisodchilar, soliq ekspertlari fikrlari asosida ekspert baholash usulidan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda soliq tizimida liberallashtirish, biznes jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi jarayonlari yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.⁶ Biroq mavjud mexanizmlar yanada takomillashtirilishga muhtoj. Shu sababli maqola yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning zamonaviy yondashuvlarini ilmiy asosda tahlil qiladi.

1-jadval

O‘zbekistonda Yashirin Iqtisodiyotning Baholangan Ulushi (sohalar kesimida)⁷

T/R	Sektor	Baholangan ulushi (%)
1	Qurilish	30–35
2	Chakana savdo va umumiy ovqatlanish	25–30
3	Qishloq xo‘jaligi	20–25
4	Transport xizmati	35–50
5	Xizmatlar sohasi	10–15

Tadqiqotda O‘zbekistonning iqtisodiy tarmoqlarida yashirin iqtisodiyotning taxminiy ulushi bo‘yicha Jahon banki, XMT (ILO) va milliy monitoring hisobotlaridan olingan statistik ma‘lumotlar asosida taqqoslash tahlili o‘tkazildi (1-Jadval). Ushbu manbalar soha kesimida norasmiy faoliyatning umumiy ko‘lamini baholashga imkon berdi.

2-jadval.

Yashirin iqtisodiyot ulushi bo‘yicha solishtirma tahlil (2018–2023)⁸

Mamlakat	2018 (%)	2020 (%)	2023 (%)	Izoh
O‘zbekiston	32–34	30-32	25-27	Raqamlashtirish va soliq islohotlari ta‘siri.

⁵ Kaufmann, D., & Kaliberda, A. (1996). Integrating the Unofficial Economy into the Dynamics of Post-Socialist Economies: A Framework of Analysis and Evidence. World Bank Working Paper No. 1691.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2023), Jahon banki (2022). Uzbekistan Informal Economy Diagnostics; ILO (2021).

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2019–2023), Jahon banki (2022–2023). Uzbekistan: Informal Economy Diagnostics Reports

Mamlakat	2018 (%)	2020 (%)	2023 (%)	Izoh
Gruziya	22	21	19	Soliq stavkalari soddalashtirildi, norasmiy sektor qisqardi.
Estoniya	16	14	12	Kuchli raqamli davlat tizimi va shaffof boshqaruv.
Qozog'iston	27	25	22	Soliq ma'murchiligi raqamlashtirilgan, nazorat kuchaytirilgan.

Xalqaro tajribalar (Estoniya, Gruziya) shuni ko'rsatadiki, shaffof boshqaruv, raqamlashtirilgan soliq tizimi va korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosat yashirin iqtisodiyoti ulushini 2–3 baravar kamaytirishi mumkin. O'zbekistonda ham raqamlashtirish, Soliq kodeksining yangilanishi, tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi ijobiy natija bermoqda.

Empirik tahlilda O'zbekiston bo'yicha quyidagilar o'rganildi: norasmiy bandlik ulushi, soliq ma'murchiligining soddalashuvi, elektron to'lovlar hajmi, yuridik shaxslarda rasmiy aylanmalar o'sishi, davlat xizmatlari raqamlashtirilishining iqtisodiy samarasi.

3-jadval

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (O'zbekiston bo'yicha, 2019–2023-yillar)⁹

No	Ko'rsatkichlar nomi	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
1	Norasmiy bandlik ulushi (%)	41.2	38.9	35.5	33.0	30.7
2	Naqd pulsiz to'lovlar ulushi (%)	29.4	41.8	55.1	66.7	72.3
3	Soliq ma'murchiligi raqamlashtirilishi (%)	45	52	65	78	84
4	Yangi ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni (ming)	32.1	28.4	39.7	51.3	57.8
5	Shaffof davlat xizmatlari (e-government) ulushi (%)	37	49	61	74	81

Bu ko'rsatkichlar yashirin iqtisodiyot dinamikasini aniqlash va institutsional islohotlarning ta'sirini baholash uchun asos bo'ldi.

4-jadval

Yashirin iqtisodiyotdan davlat byudjetiga tushmagan mablag'lar, trln. so'mda (Soliq yuki YaIMga nisbatan 18 foiz hisoblanganda).¹⁰

Yillar	Yashirin iqtisodiyot hajmi (pul aylanish tezligi bo'yicha)	Byudjetga tushishi mumkin bo'lgan soliqlar	Yashirin iqtisodiyot hajmi (naqd pul-depozit bo'yicha)	Byudjetga tushishi mumkin bo'lgan soliqlar	Byudjet defitsiti
2019	277,6	51,0	266,3	48,9	13,5
2020	307,2	57,3	263,6	49,2	17,0
2021	311,7	58,4	225,1	42,2	40,7
2022	472,5	85,0	373,5	67,2	35,3

⁹ ILO, Uzstat, Markaziy bank, Soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, yagona portal ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁰ <https://imrs.uz/> sayti ma'lumoti

Agar 2022-yilda yashirin iqtisodiyotdan davlat byudjetiga tushmay qolgan 85 trln. so‘m mablag‘ning yarmi (42,5 trln. so‘m) ijtimoiy sohani rivojlantirishga sarflanganda:

- maktablarda qo‘shimcha 2,1 million o‘quvchi o‘rni yaratish;
- kasalxonalarda qo‘shimcha 10 000 ta yotoq o‘rni tashkil qilish;
- 50 ta tez yordam avtomobilini sotib olish;
- bir yil davomida 293 ming nafar shifokorning oylik maoshini to‘lab berish imkoniyati yaratilgan bo‘lardi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy va institutsional mexanizmlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda ishlagan taqdirdagina yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli kamaytiradi. Faqat soliq yuki yoki nazoratning kuchaytirilishi yashirin iqtisodiyotini to‘liq tushuntira olmaydi. Unga infratuzilma, ishonch, adolatli raqobat, raqamli texnologiyalar va davlat xizmatlarining sifatiga bo‘lgan ishonch ham ta‘sir qiladi.

Xulosa va takliflar

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish iqtisodiy barqarorlik, sog‘lom raqobat muhiti va davlat moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning samaradorligi ularning uyg‘unlashuvi, izchilligi hamda raqamlashtirish jarayonlari bilan integratsiyalashganiga bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish - soliqlarni soddalashtirish, rag‘batlantiruvchi fiskal choralarni kengaytirish va biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish orqali norasmiy sektordan rasmiy sektorga o‘tishni jadallashtiradi.

Soliq stavkalarining optimal darajada belgilanishi, kichik biznes uchun imtiyozli shartlarning yaratilishi hamda yengillashtirilgan kredit liniyalari yashirin faoliyat motivlarini kamaytiradi. Institutsional mexanizmlarning kuchaytirilishi — davlat boshqaruvi samaradorligi, nazorat organlari faoliyatining shaffofligi, korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning amalda ishlashi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida koordinatsiyaning kuchayishi, investitsion muhitni kuchayishi bilan belgilanadi. Investitsion muhitni takomillashtirish tadbirkorlik faoliyati uchun imkon qadar qulay shart-sharoit yaratishdan iborat. Buning uchun investitsion muhitni baholash lozim bo‘lib, u o‘ziga xos mezonlar asosida biznes yuritish reytingini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, investitsion muhit davlat organlari siyosati va harakatlari bilan shakllanadi. U bevosita infratuzilmalarni yaratish, soliqqa tortish va tartibga solish, mehnat va moliya bozorlari faoliyati, mulk huquqlari xavfsizligi va davlat boshqaruvi sifatini belgilovchi omillarga ta‘sir qiladi.¹¹ Ayniqsa, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarining qisqartirilishi tadbirkorlarning norasmiy faoliyatga murojaat qilish ehtiyojini sezilarli kamaytiradi. Davlat nazorati, litsenziyalash tizimi, soliq ma‘murchiligi va korrupsiyaga qarshi choralar bo‘yicha mavjud me‘yoriy bazalar o‘rganildi. Yashirin iqtisodiyotni rolini kamaytirish uchun iqtisodiy va institutsional islohotlarning o‘rni nihoyatda muhim ekan. Davlat bu borada o‘zining qonunlarini mustahkamlasa, albatta yashirin iqtisodiyotni ulushi birmuncha qisqaradi. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni berib o‘tmoqchimiz:

- institutsional tizim orqali yashirin iqtisodiyotning real ko‘lamini baholash uchun integratsiyalashgan statistik tizim yaratish;
- raqamli to‘lovlar ulushini oshirish uchun qulay infratuzilma yaratish;

¹¹ Саттарова М. Innovatsion yondashuvlar asosida investitsion muhitni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari //Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 468-470.

- naqd pulsiz iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar joriy etish.
- sun‘iy intellekt asosidagi monitoring dasturlarini tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi; “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi; Jahon banki (2022). *Informal Economy Diagnostics: Uzbekistan*.
2. Cornell University, INSEAD, and WIPO. (2020). *Global Innovation Index 2020: Who Will Finance Innovation?* Retrieved from https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2020.pdf
3. Frey, B. S., & Pommerehne, W. W. (1984). *The Hidden Economy: An International Analysis*. Basil Blackwell.
4. Schneider, F. (2015). *Shadow Economy and Tax Evasion*. Cambridge University Press.
5. Kaufmann, D., & Kaliberda, A. (1996). *Integrating the Unofficial Economy into the Dynamics of Post-Socialist Economies: A Framework of Analysis and Evidence*. World Bank Working Paper No. 1691.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2023), Jahon banki (2022). *Uzbekistan Informal Economy Diagnostics*; ILO (2021).
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2019–2023), Jahon banki (2022–2023). *Uzbekistan: Informal Economy Diagnostics Reports*
9. Саттарова М. Innovatsion yondashuvlar asosida investitsion muhitni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari // *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации*. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 468-470.
10. Jumaniyozov, F. (2024). *Yashil iqtisodiyot*. *Молодые ученые*, 2(29), 115-117.
11. Jumaniyozov, F. (2025). *Mintaqada barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashda yashil mehmonxonalar ahamiyati*. *University research base*, 272-275.